

FRANSUZ TILIGA SHARQ TILLARINING TA'SIRI

Saydaliyeva Farog'at Orif qizi
Samarqand Davlat Chet tillari Instituti
 2- bosqich talabasi

Annotatsiya. *Maqolada fransuz tiliga sharq tillarining ta'siri va ularning o'zaro aloqalari misollar orqali yoritilgan. Ushbu mavzu bo'yicha izlanishlar nazariy asosda ifodalangan.*

Kalit so'zlar: *o'zlashma so'zlar, fonetik xususiyat, arab ,fors, turk tillari.*

Fransuz tili- hindyevropa tillari oilasining roman guruhiga mansub til hisoblanadi. Fransuz tili Fransiya, Fransiya Gvianasi, Gaiti, Monako, Benin, BurkinaFaso, Gabon, Gvineya, Kongo Demokratik Respublikasi, Kongo Respublikasi, Kot d'Ivuar, Mali, Markaziy Afrika Respublikasi, Niger, Senegal, Togo, Chad davlatlarining rasmiy tilidir. Fransuz tili istilochilar tili (lotin tili) va Galiya tub aholisi tillarining o'zaro ta'siri jarayonida shakllangan. Fransuz tili tarixi bir qancha davrlarga bo'linadi. Bular: gallroman (5-8-asrlar), eski fransuz (9-13-asrlar) o'rta fransuz (14-15-asrlar), ilk yangi fransuz (16-asr), yangi fransuzklassik(17-18-asrlar) va hozirgi fransuz (19-asrdan). 20-asrdan fransuz tilida adabiy va og'zaki nutq o'rtasida sezilarli farqlar paydo bo'la boshlagan.[1]

Fransuz tiliga sharq tillarining ta'siri tarixiy va madaniy jihatdan juda muhimdir. Fransuz tilining rivojlanish bosqichlarida Sharq mamlakatlari, xususan, Arab,Fors va Turk tillari fransuz tilidagi ayrim so'zlar, frazalarga va sintaksisga ta'sir ko'rsatgan . Bu ta'sir ayniqsa o'rta asrlarda savdo yo'llarining rivojlanishi va madaniyatlar aro almashinuvlar natijasida yanada kuchaygan. Shu tufayli fransuz tiliga sharq tillaridan ham ko'plab yangi so'zlar va iboralar kirib kelgan.

Shu jumladan , xalq boshqa bir xalq tilida paydo bo'lgan tushuncha va so'zni o'zlashtirib olish bilan birga shu predmet va tushunchani ham qabul qiladi va bu so'zlar o'zlashma so'zlar deyiladi. Ayrim paytlarda fransuz tili boshqa tillardan yangi ma'noli so'zlarni o'zlashtirib oladi va an'anaviy so'zlarning eski ma'nosiga yangi ma'no qo'shadi. Masalan: *jalousie* so'zining ikkinchi "forscha" ma'nosini italyan tilidagi *gelosiya* so'zidan o'zlashtirgan.

So'zlarni boshqa tillardan o'zlashtirilishi bir tildan ikkinchi tilga to'g'ridan-to'g'ri o'tgan bo'lishi yoki ikkinchi til vositasida o'zlashtirilgan bo'lishu mumkin. Masalan: fransuz tili *hussar* so'zini vengr tilidan nemis tili orqali; *azur*, *caracane*, *orange* so'zlarini fors tilidan arab tili vositasida o'zlashtirib olgan.[2]

Fransuz tili o'zining ko'p asrlar davomida rivojlanishida sharq tillari va madaniyati ham katta ta'sir ko'rsatgan. Bular: fors tili, arab tili yoki turk tillari ko'proq uchraydi.

- Arab tili fransuz tili uchun eng muhim sharq tillaridan biri hisoblanadi.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Chunki qadimgi arab tilidan fransuz tiliga o'zlashgan so'zlar miqdori boshqa sharq tillariga qaranganda ko'proq miqdorni tashkil qiladi. Masalan: XII asrdayoq arab tilidan o'tgan quyidagi so'zlarni ;

- *Amirat*
- *Cotton*
- *Gazelle*
- *Hazard*
- *Jupe*
- *Matelas*

XIII asrda fransuz tiliga arab tilidan o'zlashtirilgan. Ayni shu davrda fransuz tiliga arab tilidan tibbiy dorishunoslikka oid so'zlar : *alcool* < “*al – kohl*” *aroq, spirtli ichimlik* ma'nosida *elixir* < “*al – iksir*” kabi so'zlar o'zlashgan;

- *Arsenal*
- *Alcool*
- *Almanach*

kabi so'zlarni ham fransuz tili leksikasida uchratishimiz mumkin. Bu avvalo Fransiya va Yaqin Sharq o'rtasidagi savdo aloqalari arab tilidan so'zlarni o'zlashtirishga keng imkoniyat yaratdi. Bu asosan aniq predmet va mahsulot nomi bo'lib, shu predmet yoki mahsulot bilan birga uning nomini o'zlashtirishgan. Bundan tashqari arab urf-odatiga tegishli bo'lgan so'zlarni ham fransuz tili tarkibida ko'rishimiz mumkin. Bular quyidagilar: *harem* – “*haram*” ma'nosi “*himoyalovchi*” , *calife* – “*khalifa*” “*Muhammadning noibi*” , *émir* – “*amir*” , *caïd* – “*qâid*” “*qabila boshlig'i*” , *fellah* – “*fallah*” (*cultivateur*) *dehqon* singari so'zlarni uchratishimiz mumkin.[2]

• Arab tili bilan bir qatorda fors tili ham fransuz tiliga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. Tarixiy jihatdan, fors va fransuz tillarinng madaniyati bir-biriga yaqinligi sababli bir qancha forscha so'zlar fransuz tiliga o'zgarishsiz kirib kelgan . Masalan:

- *Bazar* – forscha “*bāzār*” so'zidan olingan bo'lib bozor ma'nosini anglatadi,
- *Jardin* – forscha “*jardīn*” so'zidan ilingan bo'lib bog' ma'nosini bildiradi.
- *Tala* – forscha “*talā*” so'zidan kelib chiqqan va oltin qiymatli narsa ma'nosini anglatadi.

Bu kabi so'zlar fransuz tiliga o'zlarinig o'ziga xos ma'nolari bilan o'zlashtirilgan. Ya'ni, *bazar* – forscha “*bāzār*” so'zidan olingan va bozor m'nosini anglatadi. *Jardin* – forscha “*jardīn*” so'zidan olingan va bog' degan ma'noni anglatadi. *Tala* – forscha “*talā*” so'zidan olingan bo'lib oltin qiymatli narsa degan ma'noni bildiradi[3]

• Turk tilidan fransuz tiliga o'zlashgan so'zlar ko'pincha o'sha so'zlarning fonetik, morfologik, leksik o'zgarishlari bilan bog'liq. Hozirgi kunda fransuz tilida uchraydigan ba'zi turkcha so'lar quyidagilar:

- *Yaourt* – turchada “*yogurt*” so'zi sutdan tayyorlangan mahsulotni anglatadi va fransuz tiliga ham shunday shaklda o'tgan.
- *Kebab* – turkcha “*kebab*” go'sht mahsulotlarini tayyorlash usuli .
- *Dolma* – turkcha “*dolma*” ichiga go'sht yoki guruch to'ldirilgan sabzavotlar

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

➤ *Kiosk* – turkcha “kiosk” kichik do’kon yoki joy ma’nosini anglatadi.

Bu so’zlar fransuz tilida o’zlarining dastlabki ko’rinishlaridan farq qilmasdan ishlatiladi, ammo ularning talaffuzi ba’zan o’zgarishi mumkin. *Yaourt* – turkchada “yoğurt” sutdan tayyorlangan mazzali mahsulotni anglatadi. *Kebeb* – turkcha “kebab” go’sht mahsulotlarini tayyorlash usuli. *Dolma* – turkcha “dolma” go’sht yoki guruch joylangan sabzavotlar. *Kiosk* – turkchada “kiosk” deb ataladi joy nomi.

- Matematika va astronomiyaning taraqqiyoti lotin tili orqali fransuz tiliga bir necha so’zlarni olib kirgan, jumladan: *algebra*, *chiffre*, *azimuth*, *zenith*, *gourbi*, *smola*, *toubib*, *koran*, *calif*, *emir*, *satin*, *abricot*.

Fransuz tiliga sharq tillarining ta’siri faqatgina so’zlar bilan cheklanmaydi. Chunki Sharq madaniyatlari, san’ati va falsafasi fransuz adabiyoti va falsafasida o’z aksini topgan. Ushbu aloqalar fransuz tilining rivojlanishi va shakllanishiga katta hissa qo’shadi. Bundan tashqari sharq tillarining fransuz tiliga ta’siri vaqt o’tishi bilan o’zgarib rivojlanib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYAOTLAR:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fransuz_tili
2. Mirboboev.F referat “Fransuz tilida o’zlashma so’zlar”
3. Sapaev.R, Avezmetov.Sh. “O’zbek tilidagi arabcha va forsha so’zlar lug’ati”, T., :O’qituvchi”, 1996.

